



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHDA SYUJETLI-ROLLI O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ergasheva Hilola Alisherovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

*"Ta'lism va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lism)" mutaxasisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalarni axloqiy tarbiyalashda syujetli-rolli o'yinlardan foydalanishning ahamiyati bayon qilingan. Maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy tarbiya, o'yin, estetik tarbiya, ma'naviy motiv, ijtimoiylashuv, ta'lism-tarbiya.

KIRISH

Bugun O'zbekistonda maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lism berish, rivojlantirish va tarbiya qilish davlat ta'lism siyosatining muhim vazifasi hisoblanadi. 2019 yil 16-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev Qunchilik palatasi tomonidan 22 oktyabrdan qabul qilingan va 14 dekabrdan Senat tomonidan ma'qullangan "Maktabgacha ta'lism va tarbiya to'g'risidagi" Qonunni imzoladi. Qonun maktabgacha ta'lism va tarbiyani bolalarni o'qitish va tarbiya qilish, ularni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish hamda umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzlusiz ta'limga qarab qaraladigan qismi sifatida belgilaydi.

Maktabgacha ta'lism uyg'un rivojlangan shaxsnii tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarini yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahmiyatga ega bo'lgan tashkilotdir. O'yin maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanganligimi belgilab beradi. O'yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta'lism muassasasining ta'lism-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahmiyatga ega. Jamiatning ma'naviy takomillashuvi unda amalga oshiriladigan ta'lism-tarbiya ishlaringin mazmuni, shakl va mohiyatiga bog'liqdir. Shu boisdan ham ta'limga yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma-bosqich ta'lism tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inson ijtimoiy hayotga aralashar ekan, ijtimoiy munosobatlar ta'siriga tushadi. Ijtimoiy munosobatlar o'zgarishi bilan shaxsning ma'naviy qiyofasi, yangi dunyoqarashi, g'oya va tasavvurlari, jumladan axloqi ham, shuningdek, unga bo'lgan qarashlar ham o'zgarib boradi. Har qanday shaxs o'z dunyoa



qarashi, axloqiy qoidalarni va ular ta'sirida shakllangan odat va ko'nikmalarn o'zlashtirib borishi bilan birga, aniq ijtimoiy voqealarga, o'zini o'rab olgan narsa va hodisalarga, kishilarning xatti-harakatlarga, yurish-turish va muomalalariga muayyan hayotiy muayyan hayotiy mavqeda turib, maqsadga muvofiq tarzda baho beradi. Axloq so'zi - lotincha «myeros», ya'nii moral, mantiq so'zidan kelib chiqib, u hech qayerda qat'iy yozib qo'yilmagan ijtimoiy qonundir. Inson kundalik hayotida undan (axloq normalaridan) norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo'ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma'naviy motivlar shakllangan bo'ladi. Bu motivlar esa o'sha kishini jamiyatda munosib xulq-atvorga rag'batlantiradi. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o'ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib olishgina o'quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloqiy tushunchalaming turli yosh davrlarida shakllanish darjasini Axloqiy onglilik Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir. Axloq odamlarning bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'Iadi. Axloq - kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo'lsa, odob - shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlarida namoyon bo'Iadi. Qadimgi faylasuflar-u, donishmandlar ijodida odob-axloq malasalari markaziy o'rinni egallab kelgan. Ular axloq-odobni jamiyatning «poydevori» deganlar. Shuning uchun jamiyatning har bir a'zosining xulqi-odobiga alohida e'tibor bilan qaraladi. Muqaddas Qur'oni Karimda va payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalomning hadislarida insoniy axloq-odobning barcha qirralari o'z ifodasini topgan. Quyidagi hadislarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin: «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar», «Men barcha yaxshi axloqni takomillashtirish uchun yuborilganman», «Mo'min kishida quyidagi ikki xislat bo'lmasligi kerak: baxillik va axloqsizlik». Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti deb bilganlar. Albatta, ta'lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darjasini va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'nii xalq ma'naviyatini boyitadigan eng muhim omildir»

Ma'lumki har bir xalqning o'z afsonaviy qahramonlari, pahlavonlari bo'ladi. Shu ma'noda xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish «Alpomish» dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini saqlagan, el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, oljanoblik, vafo va sadoqat kabi axloqiy fazilatlari o'z ifodasini topgan. Shu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Abdulla Avloniyining «Turkiy guliston yoxud axloq» kitobining «Haqqoniyat» deb atalgan bobida rostlik va to'g'ri so'zlikni insonning eng insoniy sifatlaridan biri deb hisoblaydi. U bola tarbiyasida o'sayotgan shart-sharoit va tarbiyaning roliga alohida e'tibor beriladi. A.Navoiy ijodida ham axloq-odob masalalariga katta ahamiyat berilgan. «Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimlirog'idir» - deydi mutafakkir A.Navoiy. A.Navoiyning «Mahbub-ul qulub» asarida odob, axloqqa oid g'oyalari ilgari surilgan. Insonparvarlik g'oyalari ulug'langan. Pedagogika fani yosh avlodni axloqiy rivojlanishida tarbiya va ta'limi muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruhiyatga oid tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, Maktabgacha ta'lim davri bolaning ma'naviy shakllanishida eng muhim bosqichidir. Shu davrda ma'lum maqsadga qaratilgan ta'limtarbiya ta'sirida shaxsning axloqiy sifatlari shakllana boshlaydi. 6-7 yoshda ijobjiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo'ladijan munosabatlarida egallab olgan axloq normalariga asoslangan holda ish tutadigan



bo'lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab axloqiy tarbiya berib borish muhimdir. Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'nnaviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Bolalarda axloqiy his- π tuyg'ular, tasawurlar va xatti-harakatlami tarbiyalash. Axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari to'g'risida keng tasavvur, tushunchalar beradi.¹

MUHOKAMA va NATIJA TAHLILI

Syujetli – rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi uchun ko'rgazmalar tayyorlash. Guruhlarda xonalarni syujetli rolli o'yinlar va sahnalashtirish markaziga mos holda jihozlash yo'riqnomasi:

1. Shirma
2. Marionetka-qo'g'irchoqlar (ipda o'ynatadigan)
3. Qo'lqopli, barmoqli, tayoqchali, soya teatr ertak kaxramonlari
4. Ertak qaxramonlari liboslari
5. Niqoblari
6. Uycha maketi
7. Mazmunli o'yinchoqlar
8. Rejissyorlik o'yinlari uchun qaxramonlar (odamchalar, askarlar, multfilm personajlari)
9. Sahna uchun jihozlar (turli daraxtlar, tandir maketi va hokazo)

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazlari bolalar iqtidorini namoyon bo'lishi, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni - bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o'rganish) imkon yaratiladi. Syujetli-rolli o'yinlar mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan xisoblanadi. Mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeritskiy, P.E.Samorukova va boshqalarning fikricha, syujetli-rolli o'yinlar kattalarning ijtimoiy hayotidagi rangbarang xatti-harakatlari, ko'rinishlari – bolalar o'yinlarining asosiy mazmuni bo'lib xizmat qilib, kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turidir.

Syujetli-rolli o'ynlarga rahbarlik qilish quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. bosqich. Bolalarning qiziqishlarini, ulardagи syujetli o'yinlar rivojlanishi darajasini o'rganishning asosiy vositasi quyidagilar: - bolalar o'yinlarini kuzatish, - o'yin rivojining asosiy yo'nalishlari, o'yin mavzusi, o'yin mazmuni, bola o'yin faoliyatining rivoji, o'yinda o'zaro munosabatlarning rivojlanishi bo'yicha tavsifnomaga tuzish; - o'yinga rahbarlik maqsadini aniqlash.
2. bosqich. Kattalarning o'yin mavzui va mazmuniga ta'sir etishi: - o'yin mavzui bo'yicha sayohat va maqsadli sayrlar; - suhbatlar; - badiiy asarlar va hikoyalar o'qib berish; - illyusrativ rasmlar ko'rsatish; - mavzu bo'yicha turli mashg'ulotlar; - tasviriy faoliyat mashg'ulotlari

¹ Qodirova F., Toshpo'latova. Sh., Kayumova .N, Azamova .N Maktabgacha ta'lif pedagogikasi Toshkent-2019



3. bosqich. o'yinga tayyorgarlik (o'yin o'ynash uchun maxsus joy, o'yinchoqlar va o'yin materiallari): - tayyor o'yinchoqlarni tanlash; - qo'lida yasalgan o'yinchoqlar. Bunda bolalarning mustaqil shug'ullanishlari uchun o'yin zonasini tashkil etish.
4. bosqich. Bolalarni o'ynashga o'rgatish (o'yin jarayoni va boshqa narsalarni o'yinda aks ettirish): - o'yinchoq va uning o'rnnini bosuvchi buyumlar ta'sirini o'rganish; - o'yinda xayoliy tasavvurlarni aks ettirishga o'rgatish; - o'yinda so'zlardan foydalanishga o'rgatish; - o'yinda harakatlarni hisobga olish malakalarini shakllantirish; - so'z va harakat; - harakat va o'yin materiali, - so'z, harakat va o'yin materiali o'yining tili xisoblanadi.
5. bosqich. o'yinda ahloqiy munosabatlarga ta'sir etish, bolalar jamoasi, xulq-atvor, madaniyat, o'yin faoliyatida o'yin madaniyatini shakllantirish: - ma'lum o'yin mavzuiga nisbatan bolalarning his tuyg'ularini uyg'otish; - bolalarga o'yinni avvaldan rejalashtirish elementlarini o'rgatish; - o'yinda rol va o'yinchoqlarni oqilona tag'simlashga o'rgatish; - tengdoshlari bilan ahil o'ynay olish madaniyatini tarbiyalash; - ahil jamoani shakllantirish: mustaqil o'ynash va o'yinni oxiriga yetkazish, o'yin jarayonidagi kelishmovchilik, bahslarni oqilona hal eta olish malakalarini tarbiyalash; - kattalarning o'yinga ta'sir etishi – maslahat berishi, tushunchalarini to'ldirish, o'yinga to'lag'onli yordam berish; - bolalarning o'yin faoliyatlarini, ahloqiy munosabatlarni baholash.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va amalga oshirish vositalari shaxsning muhim ma'naviy sifatlari bo'lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish, vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O'zbekiston gerbi, bayrog'i, madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan birgalikda qilinadigan izlanishlarga munosabat, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi .Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini axloqiy hislarini shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash va rivojlanishni taqozo etadi. Syujetli-rolli o'yinlar bolaning aqliy, ahloqiy, jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'yin orqali ta'lif olish metodik qo'llanma Toshkent -2020
2. Qodirova F., Toshpo'latova. Sh., Kayumova .N, Azamova .N Maktabgacha ta'lif pedagogikasi Toshkent-2019
3. Rasulov .Y, Nurmatova .O Pedagogika fanidan o'quv qo'llanma Toshkent -2014
4. Mavlonova .R, To'rayeva .O, Xoliqberdiyev .K Pedagogika Toshkent- 2011
5. Turabova, S. K. (2021). The relationship between the development of innovative thinking and argumentative competence. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 297-300.